

**PSIXODIAGNOSTIK METODLAR VA ULARDAN FOYDALANISH**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Baxriddinova Dilnura

Parmonova Durdona

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan psixodiagnostik metodikalar va ulardan foydalanish orqali bolalardagi psixologik bilish jarayonlarini, psixologik holatlari va xususiyatlarini aniqlab olish to'xtalib o'tamiz.*

Kalit so'zlar: *Psixodiagnostika, metod, usul, bilim, ko'nikma, malaka, yosh xususiyatlari, taraqqiyot, o'yin*

Абстракт: *В данной статье мы остановимся на методах психодиагностики детей в дошкольных образовательных учреждениях и выявлении психологических познавательных процессов, психологических состояний и особенностей детей посредством их использования.*

Ключевые слова: *Психодиагностика, метод, знания, умения, компетентность, возрастные особенности, развитие, игра.*

Abstract: *In this article, we will focus on the psychodiagnostic methods of children in preschool educational institutions and the identification of psychological cognitive processes, psychological states and characteristics of children through their use.*

Key words: *Psychodiagnostics, method, method, knowledge, skills, competence, age characteristics, development, game.*

Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni bolalarning qobiliyat va layoqatlarini har tomonlama rivojlantirishga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogika jarayonining mahsuldorligi pedagogning o'z tarbiyalanuvchilarini yaxshi bilishiga, ta'lim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo'llashiga bog'liq. Psixologiya fan sifatida tarbiyachiga tayyor



retseptlarni bera olmaydi. Bunday ko'nikmalar bolalar bilan bevosita muloqot jarayonida, bola xulq-atvori motivlarini, shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida egallanadi. Bu haqda K.D. Ushinskiy quyidagicha yozgan edi: «Biz unday yoki bunday qiling deb tushuncha bermaymiz. Biz ularga Siz boshqarmoqchi bo'lgan psixik hodisalarning qonuniyatlarini o'rganing va ularga mos ravishda harakat qiling», — deymiz.

Taraqqiyotdan chetlashish yoki buzilish sodir bo'lgan holatlar chegara holatlari sifatida, psixik taraqqiyot kamchiligi sifatida, shaxs aksentuatsiyasining turli ko'rinishi sifatida tasniflanishi mumkin. Ularni aniqlash uchun bolalar psixologiyasi, klinik potopsixologiya va psixiatriya kabi sohalaridagi bilimlar talab qilinadi. Bundan tashqari tarbiyachiga akseleratsiya (tez yetilish), pedagogik qarovsizlik kabi muammolarni hal qilishga to'g'ri keladi. Tarbiyachi ta'lim va tarbiyadagi qiyinchiliklar nima uchun va qanday qilib paydo bo'lishini tushunishi uchun, u avvalo bola psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini bilishi va turlipsixik holatlarni psixologik diagnostika metodlarini egallashi zarur. Tarbiyachining

psixodiagnostik tadqiqot yoki doimiy kuzatish jarayonida olingan natijalarni bolalar bilan ishlashda qanchalik to'g'ri foydalana olishi ham zarur hisoblanadi.

Tajribaga asoslangan psixologik diagnostika fan sifatida XIX asr oxirida vujudga keldi. Xuddi shu davrda psixologiyada o'lchash g'oyasi keng tarqaldi. Psixodiagnostikaning mustaqil fan sohasiga aylanishi olimlarning insonlar psixikasidagi individual farqlarga qiziqishining ortishi bilan bog'langan. **Psixodiagnostika psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fandır. Bunda diagnoz ko'rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holati va xususiyalari haqidagi xulosalaridan iboratdir. Psixologik diagnoz (diagnosis grekcha aniqlash, bilish degan ma'noni anglatadi) shaxs individual-psixologik xususiyatlarining hozirgi holatiga baho berish, rivojlanishini oldindan aytib berish (prognoz qilish) va psixodiagnostik tekshiruv vazifalaridan kelib**

chiqib, tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so'nggi natijasidir.

Psixodiagnostik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo'yishning



3 bosqichi farqlanadi:

1) simptomatik diagnostik dasturi mavjud har qanday EXM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotdan olingan natijalar qayta ishlanadi;

2) etnologik diagnostik (kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligini emas, balki

uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi;

3) tipologik diagnostik sinaluvchi shaxs tuzilishidan olingan natijalarning ahamiyati va o'zini aniqlanadi.

Bolalarni psixodiagnostik tadqiq qilish yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun yetakchi faoliyat turining ta'siriga, individual tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq ravishda ba'zi xususiyatlarga ega. Bola taraqqiyotining har bir yosh davri bolalar bilan ishlashning usullari va vazifalarini talab qiladi.

Kichik yoshdagi bolalarni psixodiagnostik tekshiruv yosh va pedagogik psixo-logiyaning sohasi hisoblanadi. Olingan natijalar yordamchi xarakterga ega bo'lib, pedagog tomonidan bola psixik taraqqiyoti xususiyatlarini aniqlashda qo'llaniladi. Bunda ta'lim va tarbiya dasturi, turli hayotiy sharoitlarda: faoliyatda, muloqotda va boshqalarda (shaxs xulq-atvorixarakteristikalarini tuzishda) hisobga olinadi.

Eksperimental tadqiqotdan olingan natijalar oilada, bog'chada, maktab va boshqa jamoat joylarida individual va guruhviy tarbiyaviy-pedagogik tadbirlar sxemasini tuzishda qo'llanishim mumkin. Tarbiyachi o'z ishida doimo bolalar psixofizik taraqqiyoti masalalari bilan to'qnashadi. Uni vaqtinchalik natijalargina emas, (masalan, yarim yillikning oxiriga kelib bolalarning egallagan ko'nikma, malakalari kabi), balki u yoki bu jismoniy va ruhiy sifatlar rivojlanishining istiqbollari aytib beradigan natijalar qiziqtiradi.

Bolalar bog'chalarida psixodiagnostik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Diagnostika uchun zarur ma'lumotlarni olish. Bunda bolaning psixik holati va shaxsiy xususiyatlaridagi ba'zi belgilarining ko'rinishini o'rganish



maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotdan olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib, bola xulqatvorining haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari, taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalaniladi. Masalan: mashg'ulotda bola diqqatining beqarorligi, diqqatini bir joyga to'plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg'ishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Lekin xulq-atvorning ko'rsatilgan belgilari (bilan) bola xulqatvori ehtiyojlari va motivlari ierarxiasining (bosqichma-bosqich) o'zgarishi natijasi bo'lishi mumkin. Bunda shaxs nonormal holati ko'rinishlaridan biriga, yoki miya yetishmovchiliklarining funksional belgilariga duch keladi. Ikkala holatda ham u yoki bu bola o'zlashtirishi va intizomining pasayishi tashqaridan sezilsada, psixodiagnostik tadqiqotlarda o'rganilayotgan o'zgarishlar manbalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo'lishining psixologik holat belgilari ham o'rganiladi. Psixodiagnostik tadqiqotlar bola psixik funksiyalari rivojlanish darajasining aqliy taraqqiyot darajasi, yosh va ma'lumot bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun ham o'tkaziladi. Bu tadqiqotlar bolada ma'lum qiziqishlar, amaliy malakalar va kasb tanlash payti kelganda juda muhimdir.

2. Psixik taraqqiyot o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash.

3. Bolaning psixik hayot taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishining ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganish orqali zaruriy ma'lumotlar to'planadi. Bunda psixologiyaning ilmiytadqiqot metodlaridan foydalaniladi.

O'yin va o'qish faoliyatida ko'p martalab o'tkazilgan eksperimental-psixologik tadqiqotlar bola shaxsini shakllanishi va rivojlanishida ma'lum faoliyatning ta'sir ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Bolada o'tkazilgan psixodiagnostik tadqiqotlar muhim prognostik ahamiyatga egadir, chunki qo'llanilgan turli metodlarning o'quv- tarbiyaviy ta'sirini hisobga olgan shaxs rivojlanishi istiqbollarini aniqlash imkoni yaratiladi. Tarbiyachi eksperimental-psixologik tadqiqotlarni qanchalik ko'p o'tkazsa, tajribasi shunchalik ortib boradi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: bola faoliyatining xususiyatlarini o'yin va o'quv vaziyatlarida tahlil qilish; maktab, bolalar bog'chasi, oila sharoitiga moslashish, moslasha olmaslik darajasini



aniqlash; bolaning ichki hayotini tushunib olish istagi; shaxs xususiyatlarini har tomonlama rivojlantirishda unga har qanday yordam ko'rsatish.

Bo'lajak tadqiqotchi o'zida quyidagi sifatlarni shakllantirishi lozim:

- a) tadqiqot qarorlarini tez va aniq tuzish;
- b) o'z diqqatini bola topshiriqni qanday bajarayotganligiga va uning xulq-atvorini kuzatishga qaratish;
- d) bola bilan yaxshi aloqaga kirishish, uning hamma aytganlarini yozib, uning xulqidagi ba'zi reaksiyalarni to'g'ri baholash qobiliyatini yo'qotmaslik va boshqalar.

Quyidagi kuzatishni keltiramiz: tarbiyachi bog'chada mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida Gulnora ismli qizning xulq-atvorida ba'zi boshqalarnikiga o'xshamagan xususiyatlarni payqab qoldi. Qiz mashg'ulotlarda tez chalg'ib ketadi, ko'pincha pari-shonxotir. Tarbiyachi topshirig'ini tez bajarmaydi. Bir topshiriqni qo'yib ikkinchisiga tez o'tib ketadi, ishni oxiriga yetkazmaydi. O'quv topshiriqlari bajarilmaydigan boshqa vaqtda esa o'zgalardan farq qilmaydi. Qizning diqqat, tafakkur, hissiy holatini o'rganish uchun bog'chada tadqiqot o'tkazildi. Tekshiruv natijalari shuni ko'rsatadiki, qizning psixik jarayonlarida hech qanday o'zgarish yo'qligi tasdiqlandi. Topshiriqni bajarish vaqtida charchash, faol diqqat darajasining pastligi kuzatilgan. Lekin bu xususiyatlar sinaluvchi diqqatini ishning boshqa shakliga ko'chirish bilan osonlikcha bartaraf etilgan. Tarbiyachining vazifasi qizga ta'sir etayotgan boshqa omillarni to'g'ri aniqlash, individual ish olib borish, ko'rsatilgan xususiyatlarni yo'qotishdan iborat. Bu tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, qizdagi ixtiyoriy diqqat darajasining, ish qobiliyatining pastligi o'zining obyektiv sabablariga ega. Qizning 3 yoshgacha rivojlanish tarixidan ma'lum bo'ldiki u asfiksiya (kislorod yetishmasligi) bilan tug'ilgan, tug'ruqdan so'ng bosh miyasi yallig'langan. Uzoqroq ish faoliyatida bu narsa o'z ta'sirini ko'rsatgan, qiz tez charchab qolgan. Tarbiyachi qiz bilan ishlaganda shularni hisobga olishi zarur.

4. Aqli zaiflik darajasini, yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar maxsus yoki yordamchi maktabda o'qish haqida masala hal bo'layotganda tibbiy pedagogik hay'at (komissiya) tomonidan foydalanishi mumkin.



5. Bolalarda paydo bo'lgan yetarlicha o'rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologok tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda tadqiqotchini qiziqtirgan masala katta guruhlarda o'tkaziladi. Bu yerda olingan natijalarning statistik ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **M.G. Davletshin, Sh. Do'stmuhamedova, M. Mavlonov, S. To'ychiyeva.** *Yosh davrlari va pedagogic psixologiya (o'quv-me- todik qo'llanma).* TDPU, — T.: — 2004.
2. **Z. Nishanova.** Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent — 1998.
3. **M. Rasulova, D. Abdullayeva, S. Oxunjonova.** Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. — Toshkent. — 2003.
4. **S.X. Jalilova va boshqalar.** Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. — Toshkent. —2009.
6. Melikboboyevich, S. U., Abdukarimovich, Y. T., & Erkinovich, N. S. (2023). THE ROLE OF FAMILY VALUES IN THE PREVENTION AND ELIMINATION OF CHILD AGGRESSIVENESS IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(11), 275-277.
7. Melikboboyevich, S. U., & Abdukarimovich, Y. T. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN THE TREATMENT OF PERSONAL AGGRESSION. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 26-30.